

ALISHER NAVOIYNING “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARI**Ma’rufjonova Dilnoza****Farg’ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek
tili yo’nalishi 2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051881>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari tahlil qilinadi. Asarda payg’ambarlar (anbiyolar) va donishmandlar (hukamo) hayoti ibratli voqealar asosida yoritilgan bo’lib, ularning insoniyat ma’naviy taraqqiyotidagi o’rni ko’rsatib beriladi. Maqolada Odam, Nuh va Ibrohim alayhissalom kabi payg’ambarlarning sabr, iymon va haqiqat yo’lida qilgan faoliyati misollar bilan izohlanadi. Shuningdek, Luqmon Hakim, Suqrot va Aflotun kabi hukamolarning hikmatli qarashlari ham tahlil qilinib, ularning ilm va axloq haqidagi g’oyalari yoritiladi. Tadqiqot natijasida asarning asosiy g’oyasi insonni ezgulik, ilm va axloqiy kamolot sari yetaklash ekanligi aniqlanadi.

Kalit so’zlar: Alisher Navoiy, Tarixi anbiyo va hukamo, anbiyo, hukamo, komil inson, axloq, ma’naviyat, Odam Ato (a.s), Nuh alayhissalom, Luqmoni Hakim

O’zbek mumtoz adabiyotining yuksak cho’qqilaridan biri bo’lgan Alisher Navoiy ijodi nafaqat badiiy-estetik qiymati, balki chuqur falsafiy, tarixiy va ma’rifiy mazmuni bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari orqali Sharq tafakkuri, insoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot masalalari keng yoritilgan. Shu jihatdan, Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari alohida e’tiborga molik bo’lib, unda insoniyat tarixining muhim bosqichlari — payg’ambarlar va donishmandlar hayoti orqali umumlashtirilgan holda talqin etiladi.

Mazkur asar Sharq adabiyoti va falsafiy tafakkurining uzviy qismi sifatida, diniy va dunyoviy bilimlarning uyg’unligini o’zida mujassam etadi. Unda keltirilgan rivoyatlar va tarixiy lavhalar orqali insonning axloqiy kamoloti, ilm-ma’rifatga intilishi, adolat va haqiqatni anglash jarayonlari badiiy hamda ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ayniqsa, asarda ilgari surilgan komil inson g’oyasi bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Bugungi globallashuv sharoitida milliy va ma’naviy qadriyatlarni o’rganish, ularni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, uning g’oyaviy mazmuni va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Asarda Navoiy islom tarixiy an’analari asosida Odam alayhissalomdan boshlab Muhammad (s.a.v.)gacha bo’lgan payg’ambarlar hayotiga murojaat qiladi. Har bir payg’ambar haqida qisqa, ammo mazmunli hikoyalar keltirilib, ularning sabr-toqati, adolatga sodiqligi, xalqni haqqa da’vat etishdagi jasorati kabi fazilatlari yoritiladi. Bu orqali Navoiy insonni ma’naviy kamolotga yetaklovchi axloqiy qadriyatlarni targ’ib qiladi. Asarning ikkinchi qismida esa qadimgi faylasuflar va donishmandlar – hukamo haqida ma’lumot beriladi. Unda Suqrot, Aflotun, Arastu kabi Sharq va G’arb tafakkuriga ta’sir ko’rsatgan allomalarning hikmatli fikrlari va hayotiy tajribalari qisqacha bayon qilinadi. Navoiy ularning qarashlarini islomiy dunyoqarash bilan uyg’unlashtirib, ilm va hikmatning inson hayotidagi o’rnini ko’rsatib beradi. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida payg’ambarlar va hikmat egalari hayotini hikoyalar va ibratli voqealar orqali bayon qiladi. Har bir obraz orqali insonni axloqiy kamolotga yetaklovchi g’oyalar ifodalanadi.

Masalan, asarda Odam alayhissalom haqida soʻz yuritilar ekan, uning insoniyatning ilk paygʻambari ekani, Alloh tomonidan yaratilishi va yer yuzida hayot boshlanishi bilan bogʻliq voqealar keltiriladi. Bu orqali insonning yaratilishidagi ulugʻ hikmat va masʻuliyat gʻoyasi taʻkidlanadi. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining hukamo qismida qadimgi donishmandlar hayoti va hikmatli fikrlari orqali ilm va tafakkurning inson kamolotidagi oʻrni yoritiladi. Masalan, asarda Luqmon Hakim haqida ham maʼlumot beriladi. U oʻzining donoligi va ibratli nasihatlarini bilan tanilgan boʻlib, farzandiga qilgan pand-nasihatlarini orqali sabr, shukr va odobning ahamiyatini taʻkidlaydi. Luqmon Hakim obrazi orqali Navoiy insonning eng katta boyligi ilm va axloq ekanini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari Sharq adabiyotida diniy-maʼrifiy va tarixiy tafakkurni uygʻunlashtirgan muhim manbalardan biridir. Asarda paygʻambarlar hayoti va ularning insoniyatga koʻrsatgan ibratli yoʻli bilan bir qatorda, hikmat egalari — hukamolarning hayoti va pand-nasihatlarini ham yoritiladi. Bu esa asarning faqat tarixiy maʼlumot berish bilan cheklanib qolmay, balki axloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega ekanini koʻrsatadi.

Mazkur asar orqali Navoiy insonni ezgulik, adolat, ilm va maʼrifatga chorlaydi, yovuzlik va jaholatdan yiroq boʻlishga undaydi. Shuningdek, turli tarixiy shaxslar misolida sabr, donishmandlik va iymon kabi fazilatlar targʻib qilinadi. Shu jihatdan “Tarixi anbiyo va hukamo” asari nafaqat badiiy, balki ilmiy va tarbiyaviy qiymati bilan ham bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini saqlab qolgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. “Tarixi anbiyo va hukamo”. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1988.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami (20 jild). – Toshkent: Fan nashriyoti, 1968–1970.
3. Alisher Navoiy. “Xamsa”. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2006.
4. Abdurahmonov Gʻ. Oʻzbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1997.
5. Karimov N. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2010.
6. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2009.
7. Yoqubov H. Alisher Navoiy ijodi. – Toshkent: Fan, 1983.
8. Erkinov S. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985.
9. Sodiqova D. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Universitet, 2012.